

MAISHIY JANRDA IJOD QILGAN RASSOMLAR IJODINI O'RGANISH
ASOSIDA ASARLAR YARATISH

Xayitboyev Diyorbek Jonibekovich

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU San'at kafedrasi dotsenti.,
hayitbayev78@mail.ru.,*

Po'latova Barchnoy Botir qizi

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU San'at kafedrasi, dastgohli
rangtasvir yo'nalishi 1-bosqich talabasi.*

Annatsiya. *Ushbu maqolada, O'zbekiston tasviriy san'atida maishiy janrning o'rne, uning tarixi, rivojlanishi va zamonaviy san'atdagi o'rne haqida ma'lumotlar berilgan. O'zbekiston tasviriy san'ati, o'zining boy tarixi va madaniyati bilan birga, ko'plab janrlarni o'z ichiga oladi. Bu janrlarning ichida maishiy janr, ya'ni odamlarning kundalik hayotini, turmush tarzini va urf-odatlarini aks ettiruvchi san'at turi, alohida o'rin tutadi. Maishiy janr, O'zbekiston tasviriy san'atida nafaqat estetik jihatdan, balki xalqning ijtimoiy va madaniy hayotini, uning qadriyatlarini ifodalashda ham muhim ro'l o'ynaydi.*

Kalit so'zlar: *Tasviriy san'at, madaniyat, tarix, madaniy meros, kompozitsiya, maishiy janr, zamonaviy texnologiyalar, kolorit, rang, san'at.*

Maishiy janr-tasviriy san'atning kundalik ijtimoiy va shahsiy qayotni, maishiy turmushni aks ettiradigan janri. Turmushda ko'zga tashlanaligan o'zaro munosabatlar va xatti-harakatlarni, uning imki mohiyati va ijtimoiy-tarixiy mazmunini chuqur ochib berish kabi xususiyatlarga ega. Demokratik va realistik badiiy an'analarning o'sishi, rassomlarning xalq hayoti va mehnat faoliyatini atroflicha tasvirlashga qiziqishining ortishi bilan bogliq holda rivojlandi. Maishiy janrda rangtasvir (kartina) yetakchi o'rin tutadi, grafika, kichik hajmdagi haykaltaroshlikda ham maishiy mavzu keng tarqalgan.

Maishiy janrda XVII-asrdan maishiy hayot ijtimoiy mazmunga ega bo'ldi, hajviy, ijtimoiy tanqidiy yo'nalish yuzaga keldi, emotsional nafislik, psixologik noziklik va o'tkir xayotiy kuzatishlar o'z aksini topdi. Jaxrn rassomlari Jotto, Rembrandt, U. Xogart, A. Vatto. F. Goyya, P. P. Rubens, V. G. Perov, I. Ye. Repin, V. Ye. Makovskiy, A. A. Deyneka kabilarning M. jlagi yetuk san'at asarlari mashhur.



O‘zbekiston hududida Maishiy janr devoriy rasmlarda va miniatyuralarda o‘z ifodasini topgan. XX-asrda rassomlardan B. Hamdamiy, L. Abdullayev, 3. Inogomov, M. Saidov va boshqa, amaliy san’at ustalari A. Muxtorov, Sh. Mo‘minova va boshqa maishiy mavzuda asarlar yaratdilar.

Maishiy janrda ijod qilgan rassomlar Pavel Petrovich Benkov, Ro‘zi Choriyev, Alisher Mirzaev va Mannon Saidovlarni va ko‘plagan rassomlarni aytish mumkin. Bu rassomlar o‘z asarlarida kundalik hayot, xalq turmushi va oilaviy munosabatlarni tasvirlash orqali maishiy janrda ijod qilishgan. Rassom P.P.Benkovning Samarqandda badiy talim markazi Osiyo san’ati 1917 namunasi “ornamental” san’at darajasida rivojlangan. Buning uchun xalqlarning estetik qarashlari uy-ro‘zgor mavzularini, ilibos yoki memorchilik yodgorliklarini naqshlar bilan bezatishda o‘z aksini topgan. Devoriy surat, yog‘och va ganch o‘ymakorligi, zargarlik, gilamdo‘zlik, kashtachilik san’atiga oid juda ko‘p na‘munalar yetib kelgan. Professional san’at turlaridan - rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika san’ati bu davrda rivojlanmagan.

20- yillardan keyin badiy hayotda biroz siljish sezildi. Katta avlod rassomlarining ijodiy faoliyati bilan bir qatorda 20-30 yillarda ijodiy iqtidorga ega yoshlarni izlash va ularning tarbiyalash ustida ishlagan ishlar amalga oshirildi. Shunday qilib, rus rassomlari ta’sirida mahalliy rassomlar ham yetishib chiqq boshladi. 1919 yilda Toshkentda Xalq badiy maktabi ochildi. Bunday badiy maktab Samarqandda ham L.Bure va B.Vishnevsky tashabbusi bilan tashkil etildi va u o‘z oldiga bir necha maqsad va vazifalarni qo‘ydi:

- 1. Oquv dasturini butunlay yangilash, uni hayotga, tabiatga yaqinlashtirish. Talimni muzey namunalaridan nusxa ko‘chirishdan emas, balki tabiat, inson va hayvonlarni o‘rganishdan boshlash;**
- 2. Maktabga iqtidorli, tirishqoq yoshlarni kengroq jalb etish;**
- 3. Talabalarni mafkura yo‘lida tarbiyalash vazifalari qo‘yildi.**

Oqo‘v dasturiga plener mashg‘ulotlari kiritildi. Mashg‘ulotlar Samarqand chekkasidagi bog‘larda o‘tkazish rejalashtirildi va o‘tkazila boshlandi. Har kuni tashkil etilgan etyudlar ko‘rgazmasi tuzilardi, har bir asar yutug‘i va kamchiligi haqida muhokamalar yushtirilardi. Russom G. Nikitin har bir talabaning rangtasvir va chizmatasvirdagi individual xususiyiyatlari ishlab chiqib, alohida etibor qaratilar edi. Bu esa talabaga albatta ijobiy tasir etardi. Nafaqat O‘zbekistonlik yoshlar, balki qo‘shni respublikalardan ham yoshlar kelib badiy ta’lim olganlar.

1920- yillardan keyin Samarqand badiy maktabi tarqalib, uning asosida esa studio payo bo‘ldi. Unda birinchi mashg‘ulotlarni rassomlar L. Bure, V. Sedovlar berishgan. Vaqt o‘tib yana bu studiya Samarqand badiy bilim



yurtiga aylantirildi. Uning g'oya muallifi va asoschisi P.P.Benkov edi. Benkov ijod etish bilan birga o'z bilimi va tajribalarini ayamagan ijodkor bo'lgan. Ulkan ijodiy jarayon bilan chambarchas bogliq bo'lgan katta pedagogik faoliyat uning nomi bilan bog'liqdir. Pavel Benkov ko'p yillar davomida Samarqandda yashagan.

1929 yilda O'zbekistonga kelib, Benkov yetuk rassom, mahoratli usta sifatida shakllandi, u uzoq ijodiy yillar davomida qidirgan manbaini Samarkand timsolida topdi. O'zbekistonning qaynoq hayotiga sho'ng'ib, shu yerda bir umrga qoldi. O'zbekistonning serquyosh tabiati, issiq tafti, qadimiy memoriy obidalari va mehmondo'stligi uchun yaxshi ko'rib qoldi. Rang-barang ko'chalar lirikasi, gavjum ochiq va yopiq bozorlar, hunarmandchilik rastalari, chinorlar bilan o'ralgan xovuzlari, choyxonalari uni sehrlab qo'ydi.

Benkov buyuk rus rassomlari Repin, Surikov, Serov va boshqalarning asarlari haqida o'z taasurotlari bilan fikr almashardi. Rus va xorij rang tasvir san'atining buyuk ustalari tajribasi asosida talabalarni individual rivojlantirish, ularga bilim berish yo'lida tinmay izlanardi. O'zining nasihatlarini va hikoyalari bilan u doim o'quvchilarni qiziktirgan va ilhomlantirgan, shuning uchun ham uni alohida hurmat qilishgan va ezoqlashgan. Bilim yurtida muntazam ravshan “eng yaxshi kompozitsiya” tanlovlari, shahar va shahar chekkasiga amaliyot yushtirish, yozgi asarlar ko'rgazmalari Samarqandning badiiy ahli va tomoshabinlar etiboriga havola etardi. Ular bilan ko'rgazmalar muhokamasi, bahs va munozaralar yushtirilardi. Bu esa o'z kuchi bilan Samarqand badiiy hayotining ijodiy va ilmiy salohiyatini aniqlash yo'lida qo'yilgan birinchi qadamlardan biri bo'ldi.

Bir guruh iqtidorli o'quvchilar uchun Moskva va Leningrad muzeylarida rus va jahon san'ati namunalari bilan tanishish bo'yicha amaliyotlar yushtirilardi. Bilim yurti alohida katta kutubxona va talabalar ijodiy ishlaridan iborat kichik muzeyga ega edi. Aynan shu orqali halq bilim yurti hayoti bilan yanada yaqinroq tanishdi.

Benkov asarlarida, ayniqsa, 30-yillar o'rtalarida yaratgan mavzuli kompozitsiyalarida O'zbekistonni, uning qadimiy shaharlari qiyofasi, o'ziga xos iqlimi, serkuyoshliligini, o'zbek millati madaniyatini, obrazlarini yorqin bo'yoqlarda gavdalantirdi. Masalan ("Buxoro timi", 1929; "Xivalik qiz", 1931; "Dugonalar", 1940; "Qahramonning onasi", 1942; "Jangchiga sovg'a", 1945; "Dutorchi qiz", 1947). "Buxoroda oshxona" (1929), "Eski Buxoro" (1931), "Minorai kalon" (30-yillar), "Ko'cha" (1943), "Registondagi choyxona" (1944) asarlari O'zbekistonning mumtoz me'moriy obidalari va manzaralariga bag'ishlangan.



Shu bilan birga Portretlar, Samarqandning ko'cha va bog'lari, bozor va hovlilari, maydon va choyxonalari, ulardagi hayotning o'ziga xos go'zalligini yorqin va hayotiy ifodalovchi asarlar ham yaratgan. O'zbekistonda tasviriy san'atni shakllantirishda, milliy kadrlar yetishtirishda xizmatlari katta. Quyida Benkovning ijodiga mansub “Dugonalar, fro'ntdan xat” asarini bilan yaqindan tanishib chiqamiz. Ushbu asarda o'zbek milliy kiyimidagi uchta dugonalarining o'zaro suhbatlari, ularning gulgun chehrasi, issiq tabassumi aks ettirilgan. Orqa fonda esa o'zbek xovlisi, bog'da esa uzum va uning soyasida o'zbek siposi, xovli o'rtasida kichik soy oqib o'tayotgan jarayon tasvirlangan (1-rasm).



1-rasm. P. Benkovning “Dugonalar. Frontdan xat” asari.

O'rta Osiyoning rang-barang madaniyatiga voqif bo'lgan rassom bu diyorga kelib uning go'zalligini o'z ijodida shunchalik yorqin aks ettirdiki, asarlari O'zbekistonning timsoliga aylandi. Pavel Benkovning ko'pchilik asarlari esa Rossiya va O'zbekistonning boy xazinasiga aylandi. Uning ijodi o'zbek san'atiga yangi nafas baxshida etdi va bugungi kunda ham san'atkorlarning qalbini larzaga keltirmoqda. Benkovning san'atga bo'lgan sadoqati va ijodiy izlanishlari natijasida “Benkov maktabi” shakllandi, bu esa uning merosi hali-hanuz san'at ixlosmandlari va yosh rassomlar uchun ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Bugungi kunda ham uning asarlari nafaqat o'zbek san'ati, balki jahon tasviriy san'ati tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Benkovning yanabir ijod na'munasi 1945 yilda yaratilgan “Jangchiga sovg'a” san'at asari. Ushbu asarda ikkita dugonaning suhbatlari va ularning milliy kiyimlarda supa ustida o'tirgani tasvirlangan. Asar maishiy janrda ishlangan bo'lib orqa fonda o'simliklar, gullar va O'zbekiston tabiatiga xos issiq kolorit tasvirlangan. Dunolar o'zaro suhbatlari jarayonida amaliy bezak san'at bilan moxirona sovg'a tikayotgani aks ettirilgan (2-rasm).





2-rasm. “Jangchiga sovg’a” asari.

Xulosa.

O‘zbekiston mustaqil davlat sifatida hamma sohalarda dunyoga tanilmoqda. Ayniqsa amaliy san’at, xalq hunarmandchiligi, rassomchilik yo‘nalishidagi ijod na‘munalari va san’at asarlari dunyo ko‘rgazmalaridan joy olib, butun yer yuziga nomoyish qilib kelinmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari Dastgohli rangtasvir yo‘nalishi aynan biz fikr yuritayotgan bo‘lg‘usi rassomlarni tayyorlashga yo‘naltirilgan. Rang tasvir yo‘nalishi talabalari 1-kursdan boshlab mutaxassislik fanlari Rangtasvir, kompozitsiya, ashyolarda ishlash kabi fanlarda kichik kompozitsiyali qo‘yilmalar rangtasvirini chizishdan boshlashadi. Yozgi plener amaliyoti mshg‘ulotlarida tabiat manzarasi bilan bog‘liq kompozitsiyalar yaratishni o‘rgana boshlaydilar. Yillar davomida o‘rgangan bilim, malaka va ko‘niklamariga tayangan holda kartinalar yaratish kompetensiyalari shakllanib boradi.

Yuqorida biz ta’riflab o‘tgan Benkov asarlarida avvalo Vatanga bo‘lgan muhabbat, tabiatni sevish, milliy urf odatlarimiz va an‘analarimiz, ayniqsa yoshlarni qo‘l mehnati orqali san’at asarlarin yaratish kabi ijodi, insoniy fazilatlarni tarbiyalash yotadi. Shunday ekan yosh rassomlar P. Benkov kabi buyuk rassomning asarlaridan ilhomlangan holda takrorlanmas, o‘zligimizni anglash, milliy urf-odat va udumlarimiz, betakror tabiatimiz, go‘zal manzaralarimiz sarhadlari tasvirlangan bebaho san’at asarlarini yaratib, dunyo ko‘rgazmalarida namoyish qiladilar albatta.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Молева Н.М. Выдающиеся русские художники- педагоги. М, 1991.
2. Энциклопедия художника. Издательство «Внешсигма» 2000 г.
3. N Abdullaev «San'at tarixi», 1-tom Toshkent 1987 y.
4. Bulatov S.S. «Rangshunoslik». Tasviriy san'at hamda amaliy san'at talabalari uchun darslik. Toshkent. 2007y
5. Nabiev M. «Rangshunoslik va rangtasvir texnologiyasi» T. 1995y.
6. Соколникова Н.М. «Изобразительное искусство и методика его преподавания в начальной школе». М. «АКАДЕМЯ» - 1999 г.
7. Школа изобразительного искусство. М. Изд. изобразительное искусство. 1989 г.
8. Xudayberganov R. «Rangshunoslik asoslari». O`quv qo`llanma T. 2006y
9. Egamov X. «Bo'yoqlar bilan ishlash» T. 1994y

